(4). Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. М., “Просвещение”, 1969, с. 124; с. 112.
(5). Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. М., “Наука”, 1981, с. 140; с. 14.
(6). Тураева З.Я. Лингвистика текста (текст: структура и семантика). Москва, “Просвещение”, 1986, с. 127; с. 11.
(7). Акаева Э.В. Коммуникативные стратегии профессионального медицинского дискурса. Автореф. дисс. канд. филол. наук, 10.02.01. Омск, 2007, с. 23; с. 6.
(8). Степанов Ю.С. Альтернативный мир. Дискурс. Факт и принцип причинности. Язык и наука конца XX века. М., “Наука”, 1995, с. 35–73; с. 44.
(9). Евстигнеева И.А. Методика развития дискурсивных умений студентов на основе современных информационных и коммуникационных технологий (английский язык, языковой вуз). Дисс. канд. пед. наук, Тамбов, 2013, с. 228; с. 27.
(10). Арутюнова Н.Д. Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь. Гл. ред. В.Н.Ярцева, М., Сов. энциклопедия, 1990, с. 136–137.
(11). Крячкова А.П. Реализация стратегии дискредитации оппонента в политическом дискурсе Германии. Вестник МГИМО университета, 2015, № 3 (42), с. 157 – 160; с. 158.
(12). Пушкин А.А. Прагмалингвистические характеристики дискурса личности. Личностные аспекты языкового общения. Межвуз. Сб. научн. Тр. Калинин. КГУ, 1989, с. 45–53; с. 48.
(13). Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс. Теория метафоры. М., 1990, с. 147 – 165; с. 147.
(14). Цурикова Л.В. Дискурсивные стратегии как объект когнитивно-прагматического анализа коммуникативной деятельности. Вопросы когнитивной лингвистики. 2007, № 4 (013), с. 98 – 108; с. 99.
(15). Цит. по Чиняева, В.В. Механизмы формирования и интерпретация имплицитных смыслов в различных типах коммуникативных высказываний. Дисс. канд. филол. наук, Санкт-Петербург, 2015, с.198; с. 127.
(16). Карасик В.И. О типах дискурса. Языковая личность: институциональный и персональный дискурс. Сб. науч. тр., Волгоград, “Перемена”, 2000, с. 5–20; с. 5 – 6.
(17). Евстигнеева И.А. Методика развития дискурсивных умений студентов на основе современных информационных и коммуникационных технологий (английский язык, языковой вуз). Дисс. канд. пед. наук, Тамбов, 2013, с. 228; с. 28.
(18). Карасик В.И. О типах дискурса. Языковая личность: институциональный и персональный дискурс. Сб. науч. тр., Волгоград, “Перемена”, 2000, с. 5–20; с. 5 – 6.

Uralov Azamat Begnarovich (Sirdaryo viloyat pedagogik mahorat markazi,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent; azamaturalov06@gmail.com)

BA’ZI SINTETIK SHAKLLARNING HOSIL BO‘LISHIDA NOMUTANOSIBLIKLAR

Annotatsiya. *Maqolada ikki shaklning bir mazmunga birikishi shaklga nisbatan nomutanosiblikni ko‘rsatsa, ikki mazmunning bir mazmun ifodalab qolishi mazmunga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga keltirishi isbotlangan. Shuningdek, ikki so‘zning yonma-yon, yondosh kelishi natijasida ikkinchi so‘z o‘z ma’no-vazifasidan uzoqlashib qoladi, dastlab, ko‘makchi so‘zga, so‘ng esa qo‘shimchaga aylanadi. Natijada ikki so‘z va morfologik shakl o‘rtasida nomutanosiblikning yuzaga kelishi tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *murakkab, sintetik, analitik va kengaygan shakllar, qo‘shma, juft va takroriy so‘zlar, asos, nomutanosiblik (asimmetriya), birikuv, tarixiy taraqqiyot.*

О НЕСООТВЕТСТВИИ, ВОЗНИКАЮЩЕМ В РЕЗУЛЬТАТЕ ОБРАЗОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ СИНТЕТИЧЕСКИХ ФОРМ

Аннотация*. В статье доказывается, что соединение двух форм в одно содержание свидетельствует о дисбалансе по отношению к форме, тогда как соединение двух содержаний, выражающих одно содержание, создает дисбаланс по отношению к содержанию. Кроме того, в результате расположения двух слов рядом второе слово отрывается от своего значения и функции и сначала становится вспомогательным словом, а затем наречием. В результате было исследовано возникновение несоответствия между двумя словами и морфологическими формами.*

Ключевые слова: *сложные, синтетические, аналитические и развернутые формы, сложные, парные и повторяющиеся слова, основа, асимметрия, сочетание, историческое развитие.*

DISPARITIES IN THE FORMATION OF SOME SYNTHETIC FORMS

Annotation*. The article proves that the combination of two forms into one content shows disproportion with respect to form, while the expression of one content by two contents creates disproportion with respect to content. Also, as a result of the juxtaposition of two words, the second word becomes distant from its meaning-function and first becomes an auxiliary word, and then an adverb. As a result, the emergence of disproportion between two words and morphological form is studied.*

Keywords: *complex, synthetic, analytical and expanded forms, compound, paired and repeated words, basis, disproportion (asymmetry), combination, historical development.*

Kirish. O‘zbek tili morfologiyasida murakkab: sintetik, analitik va kengaygan shakllarning hosil bo‘lishi hamda ularning til qurilishidagi o‘rni va vazifasini belgilab olish, shuningdek, bunday birliklarda nomutanosiblik masalasini hal etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tilshunoslar grammatikada nomutanosiblikning sistema nomutanosibligi, struktura nomutanosibligi, amalda bo‘lish yoki funksiyalashish nomutanosibligi kabi uch turini belgilaydilar [1;25–31-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Nomutanosiblik til tizimidagi turli sathlarning har xil taraqqiyot darajasi bilan bog‘liq. Shuningdek, ayrim so‘zlarning paradigmasi to‘liq bo‘lmaganligi ham nomutanosiblikdan dalolat beradi. Yaxlit shakllarni fransuz tilshunoslari “ifodalanuvchilarning qo‘shilishi” (Sh. Balli) hamda “amalgamalar” (A.Martine) deb nomlaganlar. Murakkab grammatik shakllarda ifodalovchi va ifodalanuvchining turlicha mutanosib yoki nomutanosib bo‘lishi kuzatiladi. Mavzu doirasida murakkab shakllarning kelib chiqishi, rivojlanishi, taraqqiyoti va asl shakllarga nisbatan nomutanosibliklarini o‘rganib chiqamiz.

Murakkab shakllar orasida sintetik shakllar ikki va undan ortiq qismlarning hosilasidan, yaxlitlashishidan paydo bo‘ladi (ular orasidagi bog‘lanish juda zich bo‘lib, bir mazmunga xizmat qiladi). Shakllanish nuqtayi nazardan bir necha birlikdan tashkil topgan bo‘lsa-da, ular endi bir vazifa bajarish uchun xoslangan bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. *-digan, -yotgan* shakllari. Aslida, *-digan* (bara tururg‘on), *-yotgan* (yotirgan) shakllari fe’l analitik shakllarining qisqarishidan paydo bo‘lgan sifatdosh shakllaridir. *-gan* sifatdosh qo‘shimchasi aniqlovchilik vazifasida fe’lning zamon shakllaridan so‘ng shaxs-son qo‘shimchalari egallaydigan pozitsiyada kela olmaydi. *Ishla-y-man, ishla-y-san, ishlay-di; ishla-y-miz, ishla-y-siz, ishla-ydi-lar* (III shaxsdagi *-di* elementi, aslida, *turur* shaklining qoldig‘i ekanligi ma’lum: *ishlay durur – ishlay+dur – ishlaydir – ishlaydi*). Ayni shu yo‘l zamon ko‘rsatkichining shakllanish yo‘lidir. Demak, darslik va ilmiy manbalarda *ishlaydi* ko‘rinishidagi shakllardan *-di* shaxs-son ko‘rsatkichi ma’no-vazifasi shu morfema vositasida ifodalanadi: *ishla-y-man, ishla-y-san, ishla-y-di; -di* esa “qoldiq” morfema sifatida shu vazifani ham bajaradi. Mazkur holat zamon asoslariga *-gan* affiksining qo‘shila olmasligidan dalolat beruvchi muhim belgi hisoblanadi. *-digan* sifatdoshining soddalashuvi (-di+gan) tarixiy taraqqiyot bilan bog‘liq. *-yotgan* sifatdoshining soddalashuvi esa *-yot* unsurini bugungi kunda ma’no anglatmay qolishi yoki asos tarkibiga yolg‘iz qo‘shila olmasligidadir. Demak, bu holat ham nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi. Shuningdek, ***-ajak*** shakli tarkibidagi *-a* unsurining tutashtiruvchi vazifasiga o‘tishi ham nomutanosiblikning bir ko‘rinishini ifoda etadi.

-adi shakli. O‘zbek tiliga xos bo‘lgan agglutinativ-analitik tuzilishdan kelib chiqib, shuni qayd etish kerakki, ikki so‘zning yonma-yon, yondosh kelishi natijasida ikkinchi so‘z o‘z ma’no-vazifasidan uzoqlashib qoladi va dastlab ko‘makchi so‘zga, so‘ng esa qo‘shimchaga aylanadi. A.Nurmonovning fikricha, “grammatik qo‘shimchalarning qo‘shilishi asos qismning fonetik tuzilishini o‘zgartirmaydi” [2;141-b.]. Shu sababli morfologik shaklga aylangan birlik asosga yangi ko‘rinishi bilan birikadi. Mustaqil so‘zlarning fuziyaga uchrab morfologik shakllarga aylanishi diaxron jihatdan ko‘p kuzatiladi. Bunday holatlarga fe’l so‘z turkumi nisbatan ko‘p tortiladi. Masalan, *kula turur – kuladur – kuladi; ko‘rib turur – ko‘ribdur – ko‘radur – ko‘radi* kabi misollarda ikki so‘zning birikishi til morfem qurilishida *-adi* morfemasini hosil qilgan. Natijada ikki so‘z va morfologik shakl o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga kelgan.

-guncha, -gancha shakllari. Sh.Rahmatullayevning fikricha, “oraga egalik qo‘shimchasini “kiritish mumkinligi” *-guncha* yaxlit affiks emasligini isbotlab turadi: *-gun+im+cha*. Murakkab affiks ichiga forma o‘zgartiruvchi affiksni kiritib bo‘lmasligi – aksioma” [3;16-b.]. Tadqiqotda yuqoridagi fikr yana shu jihatni xarakterlaydiki, ayrim yaxlit til birligi – sintetik shakl (qo‘shma affiks) qismlari orasida ma’lum vazifadagi mustaqil affiks paydo bo‘lishi mumkin: jumladan, ravishdoshning *-guncha, -gancha* shakllarida shunday hodisa kuzatiladi: *kelguncha – kelgunimcha, kelguningcha, kelgunicha; kelgunimizcha, kelguningizcha, kelgunlaricha; kelgancha – kelganimcha, kelganicha...* *-guncha* sintetik shakli orasiga shaxs-sonning qo‘shilib qolishi kuzatiladi va bu o‘ziga xos nomutanosiblik hisoblanadi: *kel+gun (+im)cha* kabi.

Dunyo tillarida, jumladan, turkiy tillar va o‘zbek tilida qo‘shma va murakkab affikslar tarkibida morfologik shakllar (so‘z o‘zgartiruvchi affikslar)ning joylashuvi umumlisoniy xususiyatga egaligini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, o‘zbek tilshunosligi va turkiyshunoslikda *-guncha* shakli *-gancha* shaklining tovush o‘zgarishidan (-guncha<-gancha) paydo bo‘lgan degan qarash bor. Sh.Rahmatullayev o‘z vaqtida A.N.Kononov tomonidan taklif etilgan etimologiyaga tayangan holda (-gun+cha: chog‘) *-gun* va *-gan* qismlari asli

bir affiksning ikki fonetik varianti (shakli) degan xulosaga keldi. Lekin bu shakllarning genetik tabiati, diaxron jihatdan tamomila boshqa ekanligi, keyinchalik, A.N.Kononov tomonidan alohida e'tirof etilgan edi: *-guncha* shakli, aslida, *-gu* (kelasi zamon sifatdoshi) hamda *-cha* (chegara affiksi yoki ekvativ);*-gan* esa *-g* (orttirma daraja ko'rsatkichi)+*n* (sifatdosh+ravishdosh affiksi)dan iborat; *-guncha* tarkibidagi *-n* egalik kategoriyasining qoldig'idir; *-guncha* affiksi tarkibidagi *-gun* o'tgan zamon sifatdoshi, buning ustiga, fe'l sifatlovchi deb tan olinadigan bo'lsa, u qanday qilib "kelasi vaqt chegarasi"ni bildirishi mumkin? [4;13-b.]. Ma'lumki, qadimgi turkiy tilda chog'ishtirish, o'xshatish, chegara, taxmin kabi ma'no ottenkalarini bildiruvchi yoki ifodalovchi *-cha* (chegara – ekvativ) affiksi amal qilgan. (Aslini qaraganda, bunday mazmunning keng ifodalanishi tildagi bir shaklga nisbatan olinadigan bo'lsa, mazmun nomutanosibligini yuzaga chiqarmoqda). Ayni ana shu affiks, keyinchalik, *-larcha:* (yuzlarcha: chama, taxmin), *-tacha* (o'ntacha: taxmin), *-larcha* (bolalarcha: o'xshatish), *-gacha* (uygacha: chegara) qo'shma affikslari tarkibiga singishgan va yaxlitlashgan. Taraqqiyot natijasida soddalashgan. Shu sababdan tilning qadimgi davridayoq affiks maqomiga to'la ega bo'lgan *-cha, -dek* morfemalarini goh yuklama – affiks, goh ko'makchi – affiks deb nomlash, ularning imlosini o'zgartirib, chiziqcha bilan yozishga asos yo'q. Yaxlit morfema orasiga sintaktik ehtiyoj tufayli egalik shakllarining orttirilishi o'z izohiga ega: ayrim hollarda yaxlit til birligining "uzilishi", oraga ba'zi elementlarning kiritilishi tipologik jihatdan xilma-xil tillarga xos hodisadir. Bu jarayon o'zbek tilida ham ko'plab kuzatiladi. *-guncha – -gancha* (ravishdoshi); *-gun – -gan* (ravishdosh); *-larcha – -tacha* (sonlarda taxmin) shakllari morfologik sintagmalar tarkibida shaklga nisbatan nomutanosiblikning diaxron ko'rinishini; *-larcha* (chama, taxmin: *yuzlarcha* – o'xshatish: *bolalarcha*), *-gacha* (ko'makchi affiks – qadar) shakllari esa morfologik sintagmalar tarkibida mazmunga nisbatan nomutanosiblikning sinxron ko'rinishini ifodalamoqda.

Sh.Rahmatullayev: "Tom ma'noda ikki affiksning qo'shilishi natijasida yuzaga kelgan murakkab affiksdan, ikki morfemaning yonma-yon kelishini farqlash lozim", deb to'g'ri ta'kidlaydi. "Lekin, deb yozadi muallif, *-ga, -cha* murakkab affiks emas, chunki uning tarkibi *-ga* affiksiga va *-cha* morfemasiga ajraladi" [3;16–18-b.]. Keyingi birlik o'zidan oldin kelishik affiks qatnashuvini talab qiladi, go'yo "boshqaradi"; affiksga esa bunday xususiyat xos emas. Bu morfema tashqi ko'rinish asosidagina affiksga tenglashtirib yuborilgan, asli ko'makchi-affiks deb baholanishi to'g'ri: *Sirdaryoga qadar–Sirdaryogacha,* haqiqatan ham, bu o'rinda, qadar ko'makchisiga ma'nodosh, vazifadosh bo'lib kelayotganligi aniq. Shunga ko'ra, *-gacha* birikuvidagi holatda tub ma'nodagi qo'shma affiks hali shakllanmagan deb hisoblash lozim.

O'zbek tilshunosligida ko'makchilar o'zidan oldin kelgan so'zni "boshqaradi" degan an'anaviy qarash hamon mavjud. Holbuki, ko'makchilar (analitik vositalar) ham, kelishik affikslari (sintetik vositalar) ham ikki mustaqil so'z (ot+fe'l)ning birikishi (valentligi)ni ta'minlaydigan, ularning munosabatga kirishuvi uchun "ko'prik" bo'ladigan yordamchi birliklardir. Shu sababli ham ko'makchi birliklarini faqatgina boshqarish uchun xoslangan deyish to'g'ri bo'lmaydi. Shuning uchun ular bir so'zga emas, balki ikki so'zga taalluqli bo'lgan, ularni "ushlab" turadigan morfemalardir. Solishtiring: *kitobcha, qizaloq, ko'chalar; ishchan, sizla* kabi so'zlardagi *-cha, -loq, -lar, -chan, -la* morfemalari bir so'zga taalluqli birliklardir.

"*-gacha* shaklida ikkinchi qism (-cha)ning ma'nosi aktual bo'lib, *-ga* – tutashtiruvchi (asemantik) birlikka aylangan; ikkinchidan, mustaqil shakl bo'lganidan, *-gacha* (uygacha, shahargacha) bog'lanib keladigan fe'llar bilan *-ga* jo'nalish kelishigi bog'lanadigan fe'llar farqlanadi" [5;42–48-b.]. Tutashtiruvchi birlikning ma'nosizlanishiga esa o'z vazifasini yo'qotishi sabab bo'lgan. Bunda *-ga* elementi jo'nalish kelishigi xususiyatida emas, ikki birlik *-ga+cha* soddalashib, bir shaklga aylangan.

Demak, hozirgi tilda *-guncha, -gacha* kabi shakllar xuddi *-gudek* (kelgudek: -gu: kelasi zamon sifatdoshi), *-larcha* (o'nlarcha), *-tacha* (yuztacha) qo'shma affikslari kabi yaxlit til birliklari bo'lib, agar ularning tashkil etuvchilari alohida-alohida olib qaraladigan bo'lsa, til sistemasiga tegishli paradigmalardagi binar-oppozitivlik munosabatlariga putur yetadi. Chunki har bir til elementi, sodda yoki qo'shmaligidan qat'iy nazar, sinxron sistemada o'z o'rni va mavqeyiga ega. Albatta, ko'makchilar ham, yuklama va bog'lovchilar ham muayyan vazifada morfemik maydonga tortiladi. Morfem sintagmatikada ularning ham o'ziga xos o'rni va hissasi bor. Bunday birliklarni tarkibga ajratib o'rganib bo'lmaydi. Demak, shakllarning murakkablashuvi natijasida hosil bo'lgan analitik shakllar, sintetik shakllar, murakkab shakllar, kengaygan shakllarning tarkibi bugungi kunda yaxlit o'rganilib, asli mohiyatiga nisbatan nomutanosib bo'lib qolgan.

Umuman olganda, *-guncha (-kuncha, -quncha), -gancha (-kancha, -qancha)* ravishdosh shakllari o'z taraqqiyotida *-gan* sidatdoshi va yuqorida qayd etilgan *-cha* shakli yordamida hosil bo'lgan. Sifatdoshning ravishdoshga o'tishida miqdor, kuchaytiruv, qisman chegara ma'nolarini ifodalovchi *-cha* shaklining roli katta. *-cha* shaklining ravish yasashi, ravishga xos boshqa mazmunlarni ifodalashi *-gan* sifatdosh shakli bilan birikkan holda yangi mazmunning "o'sib chiqishiga" sabab bo'lgan. Natijada ilgari ifodalangan si-

fatdoshlik va kuchaytiruv mazmunlari ravishdoshning yangi shakliga “joy ajratib” bergan. Bu holat nomutanosiblikni yuzaga chiqarish bilan bir qatorda, murakkab – sintetik shaklning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilida sodda va qo‘shma birliklarning farqi ularning tuzilishida bo‘lib, ma’no jihatidan esa ular hamma vaqt ham farqli belgilarga ega emas. Shuning uchun sintetik shakllarni ma’noli qismlarga bo‘lish mumkin bo‘lsa-da, paradigma nuqtayi nazardan yaxlit shakl ko‘rinishda olib qarash, yaxlit shakl sifatida tahlil qilish lozim. Mazmun talabi bilan murakkablashgan shakllar tilda o‘ziga xos nomutanosibliklarni yuzaga chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Морфология, М., 1986, с. 25–31.

(2). Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2011, 141-bet.

(3). Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилидаги бир синтактик қурилма ҳақида. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1992, 2-son, 16-бет.

(4). Кононов А.Н. О природе тюркской агглютинации. “Вопросы языкознания”, 1976, № 4, с. 13.

(5). Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1979, 42–48-бетлар.

Ruzmetova Ozoda Alimovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti “Ingliz tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); ozoda2019581@gmail.com)

MATEMATIK TERMINLARNING IZOHLI LUG‘ATLARDAGI TADQIQI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada lug‘atlar haqida muhokama borib, xususan, terminologik lug‘atlar va izohli lug‘atlar haqidagi masalalar ko‘rib o‘tilgan. Mazkur maqolada “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va “Macmillan English dictionary” lug‘atlarida matematik terminlarni izohlanish masalalari tahlilga tortilgan. Tahlil natijasida umumadabiy va terminologik izohli lug‘atlarda terminlarning izohlanishi bir-biridan farq qilishi ma’lumligi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *termin, terminologiya, terminologik lug‘at, izohli lug‘at, izohlash, matematik terminlar.*

ИЗУЧЕНИЕ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются словари, в частности, вопросы терминологических словарей и толковых словарей. В данной статье анализируются вопросы толкования математических терминов в словарях «Толковый словарь узбекского языка» и «Macmillan English dictionary». В результате анализа отмечается, что толкование терминов в общелитературных и терминологических толковых словарях отличается друг от друга.*

Ключевые слова: *термин, терминология, терминологический словарь, толковый словарь, объяснение, математические термины.*

STUDY OF MATHEMATICAL TERMS IN EXPLANATORY DICTIONARIES

Annotation. *In this article, it is discussed dictionaries, in particular, issues of terminological dictionaries and explanatory dictionaries. This article analyzes the issues of explanation of mathematical terms in the dictionaries “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language” and “Macmillan English Dictionary”. As a result of the analysis, it is noted that the explanation of terms in general literary and terminological explanatory dictionaries differs from each other.*

Key words: *term, terminology, terminological dictionary, explanatory dictionary, explanation, mathematical terms.*

Kirish. Til taraqqiyotida tilning lug‘at tarkibi turli o‘zgarishlarga duch keladi. Bu o‘zgarishlar miqdor jihatdan yoki sifat jihatdan o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin, ya’ni, yangi leksik birliklar paydo bo‘ladi va boshqalari iste’moldan chiqadi, ba’zi so‘zlar yangicha ma’nolarda qo‘llanila boshlaydi, ba’zi bir boshqa so‘zlarning ayrim ma’nolari o‘z ma’nosini yo‘qotadi. Izohli lug‘atlar muayyan tilning til boyligini ko‘rsatish, tilning muayyan davridagi holatini aniqlash kabi maqsadlarni ko‘zlagan holda tuziladi. O‘zbek tilining izohli lug‘ati ham keng xronologik doirada o‘zbek tilining butun so‘z boyligini emas, balki hozirgi zamon o‘zbek tilining keng iste’moldagi so‘z boyligini to‘plash va tavsiflashni, shuningdek, uning me’yorlarini belgilash va barqarorlashtirishni o‘ziga maqsad qilib qo‘ygan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da “Izohli lug‘at”-ga “Lug‘aviy birlikning ma’nosi keng izohlanadigan, grammatik, uslubiy va boshqa belgilari ham qayd eti-